

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN TURIZM VA MEHMONDO'STLIK ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Turizm va mehmondo'stlik asoslari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi 572-sonli qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Turizm va mehmondo'stlik asoslari

1. Turizm va mehmondo'stlik asoslari fani bo'yicha umumiy ma'lumotlar;
2. Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasida “Urf-odatlar, oila hayoti, milliy etiket, kattalar va yoshlar munosabati;
3. Turizm va mehmondo'stlik asoslarini fanida tarixiy obyektlarga tegishli bo'limlar;
4. Butunjahon sayohat va turizm tashkiloti (WTTC) sayohat va turizmga global biznes liderlaridan hisoblanadi va qanday ish yuritishi;
5. Turizm va mehmondo'stlikda yangi texnologiyalardan foydalanib ishlash va ulardan qaysilarini tanlash.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Turizm va mehmondo'stlik asoslari fani bo'yicha umumiy ma'lumotlar.	Turizm va mehmondo'stlik asoslari fani bo'yicha tarixidan boshlab kelayotgan mehmonlarni qanday kutib olib, kuzatishgacha bo'lgan jarayonlarni o'rganib umumumlashtirilgan ma'lumotlarni biladi.	35 %	14 ta
2	Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasida "Urf-odatlar, oila hayoti, milliy etiket, kattalar va yoshlar munosabati.	Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasida "Urf-odatlar, oila hayoti, milliy etiket, kattalar va yoshlar munosabati, turistlar qiziqishlari turizm turlarini biladi.	15%	6 ta
3	Turizm va mehmondo'stlik asoslarini fanida tarixiy obyektlar	Turizm va mehmondo'stlikda tarixiy obyektlarni bilishi. Turizm va mehmondo'stlikda turizm turlari bo'yicha eng mashhur ma'lumotlarni aniqligini biladi.	30 %	12 ta
4	Butunjahon sayohat va turizm tashkiloti (WTTC) sayohat va turizm global biznes liderlari	Butunjahon sayohat va turizm tashkiloti (WTTC) sayohat va turizm global biznes liderlari haqida ma'lumotlar. Butunjahon turistik va sayyohlik jamiyati davlat iqtisodiyotni o'sishida tutgan o'rnini biladi.	10 %	4 ta
5	Turizm va mehmondo'stlikda yangi texnologiyalardan foydalanish	Turizm va mehmondo'stlik asoslarida Amadeus va E-mehmon sistemalarida ishlashni, yangi texnologiyalardan foydalanish, to'lov turlaridan bir necha xillarini biladi.	10 %	4 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	37,5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	32,5 %

3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	30 %
----	------------------------	---	------

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta’limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo‘shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Norchaev A., Alieva M. T., Xalimova F.N., “Mehmonxona xo‘jaligida innovatsiya” o‘quv qo‘llanma. –T.: “TDIU”, 2019.

2. Sayfutdinov Sh. S., Nurfayzieva M.Z., “Turizm marketingi” o‘quv qo‘llanma. –T.: “TDIU”, 2019.

3. Sattarov, A. A. Mehmonxonada marketing xizmatlarini takomillashtirish yo‘llari / A. A. Sattarov. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 22 (260). — С. 689-690. — URL: <https://moluch.ru/archive/260/59745/> (дата обращения: 15.04.2021).

4. R.S.Amriddinova, N.E.Ibadullayev, G.R.Tursunova, O.I.Tuxliyev. «Ekskursiya xizmatini tashkil qilish». 2014

5. Mirzayev Murotjon Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna «Turizm asoslari» 2018